XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 26-noyabr VII-16-139-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Tumandagi mavjud ayrim ko‘chalarni nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 23-oktyabrdagi 03-08-12099-sonli xati orqali geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida ekspert xulosasi, yig‘ilish bayoni hamda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining hisobotini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o‘n oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 23-oktyabrdagi 03-08-12099-sonli xati hamda ekspert xulosasiga asosan tumandagi ayrim ko‘cha nomlarining qonun talablariga muvofiqlashtirilganligi, mazkur qarorning loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida (https://regulation.gov.uz/oz/d/110258) muhokamada turganligi hamda Kattaqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish yuzasidan tuman adliya bo‘limining 2025-yil 25-noyabrdagi 10-sonli huquqiy xulosasida ijobiy baholanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan ko‘cha nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (G‘.To‘ychiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Normurodov), tuman “Yo‘llardan foydalanish” DM korxonasi (X.Isoqov)ga:

-bir oy muddatda tuman mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi ko‘cha nomlari ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarni qaytadan o‘rnatish;

-olib borilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalari muhokamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi J.Sarmanov, Kadastrlar palatasi tuman filiali (F.Ibragimov)ga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining ekspertiza komissiyasi tomonidan nomuvofiq va takror ko‘cha nomlari muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilsin.

5. “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi tahririyati, tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov) ushbu qarorning belgilangan tartibda e’lon qilinishini ham da tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev), tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulov va mutasaddi tashkilotlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **NASRIDDINOV JAMSHID TULKINOVICH**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-16-139-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha

TAKLIFLAR

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektn‘ing hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	ko‘cha	Alijon, Sho‘rak, Uyshun, Yangiqo‘rg‘oncha, Melixo‘ja MFY	nomsiz	Yangi Bo‘ston
2	ko‘cha (M-37)	Uyshun, Alijon, Olmazor, Kattaqo‘rpa, Navbahor, Zarqo‘rg‘on, Qoradaryo, Yakkabog‘, Polvontepa, Balandaravot MFY	nomsiz	Yangi O‘zbekiston